

## YOZMA ISHNI BAHOLASH MEZONLARI

### B2-daraja

#### 1-TOPSHIRIQ

**Diqqat: quyidagi hollarda yozma ish tekshirilmaydi va yozma ishga avtomatik tarzda minimal ball - 0.6 ball beriladi: /**

\_\_\_ yozma ish topshiriqqa mos kelmaydi (mavzudan chekinilgan)

\_\_\_ yozma ishning hajmi so'ralgan hajmning yarmidan kam (75 so'zdan kam)

\_ plagiat aniqlansa

TOPSHIRIQ TALABLARINING BAJARILGANLIGI			
4	3	2	1
___ Xat to'liq rasmiy uslubda yozilgan (uslubdan chekinilmagan)	___ Xatni yozishda ayrim hollarda rasmiy uslubdan chekinilgan	___ Xat asosan norasmiy uslubda yozilgan	___ Xat to'liq norasmiy uslubda yozilgan
___ Xat rasmiy murojaat bilan boshlangan va tugatilgan /	___ Xat rasmiy murojaat bilan boshlangan va tugatilgan /	___ Xat boshida yoki oxirida rasmiy murojaat mavjud emas	___ Xat boshida va oxirida rasmiy murojaat mavjud emas
___ Xatning maqsadi aniq bayon qilingan	___ Xatning maqsadi aniq bayon qilingan	___ Xatning maqsadi noaniq bayon qilingan	___ Xatning maqsadi umuman bayon qilinmagan
___ Xatda topshiriqda berilgan barcha punktlar qamrab olingan (3tadan 3ta)	___ Xatda topshiriqda berilgan punktlardan aksariyati qamrab olingan (3tadan 2ta)	___ Xatda topshiriqda berilgan punktlardan faqat bittasi qamrab olingan	___ Xatda topshiriqda berilgan punktlardan birtasi qamrab olinmagan
GRAMMATIKA			
4	3	2	1
___ Grammatik xilma-xillik mavjud: sodda va qo'shma gaplarning turli xillari o'z o'rnida va to'g'ri ishlatilgan	___ Sodda va qo'shma gaplarning turli xillarini ishlatishga harakat qiladi, lekin qo'shma gaplar tuzishda xatoliklar mavjud	___ Asosan sodda gaplar ishlatilgan; qo'shma gaplar bir-ikki o'rinlarda uchraydi /	___ Faqat sodda (elementar) strukturalar ishlatilgan
___ Grammatika va punktuatsiyada xatolar yo'q	___ Grammatika va punktuatsiyada ayrim xatolar mavjud, lekin ular mazmunga ta'sir qilmaydi	___ Grammatika va punktuatsiyada xatolar mazmuni tushunishga to'sqinlik qiladi	___ Sistematik xatolar; grammatikaning hatto elementar formalarida ham xatolarga yo'l qo'yilgan

LEKSIKA			
4	3	2	1
___ Leksik xilma-xillik mavjud, murakkab so'zlardan ham o'z o'rnida va to'g'ri foydalanilgan	___ Murakkab so'zlarni qo'llashda ayrim xatolar mavjud	___ So'z qo'llashdagi va so'z yasashdagi xatolar mazmuni tushunishga to'sqinlik qiladi	___ Faqat elementar so'zlardan foydalanilgan; so'zlarni qo'llashda sistematik xatolar mavjud
_ Kerakli o'rinlarda perefraz qo'llanilgan	_ Kerakli o'rinlarda perefraz qo'llanilgan	_ Perefraz deyarli uchramaydi	_ Perefraz umuman yo'q
BOG'LANISH VA MATN YAXLITLIGI			
4	3	2	1
___ Xatda mantiqiy izchillik rioya qilingan	___ Xatda mantiqiy izchillik rioya qilingan	___ Xatdagi mantiqiy izchillikda xatolar mavjud	___ Xatda mantiqiy izchillik rioya qilinmagan
___ Xat paragraflarga (abzatslarga) to'g'ri bo'lingan	___ Xat paragraflarga (abzatslarga) to'g'ri bo'lingan	___ Xatni paragraflarga (abzatslarga) bo'lishda xatoliklar mavjud	___ Xat paragraflarga (abzatslarga) noto'g'ri bo'lingan yoki umuman bo'linmagan
___ Xatda ortiqcha ma'lumot yo'q, faqat so'ralgan mavzuga tegishli ma'lumot kiritilgan	___ Xatda ayrim ortiqcha ma'lumotlar mavjud	___ Xat hajmining yarmi ortiqcha ma'lumotlardan iborat	___ Xat hajmining yarmidan ko'pi ortiqcha ma'lumotlardan iborat
___ Xatda sodda va murakkab bog'lovchi vositalar (bog'lovchilar, kirish so'zlar, olmoshlar va h.k.) to'g'ri qo'llanilgan.	___ Murakkab bog'lovchi vositalarni qo'llashda ayrim xatolar mavjud	___ Faqat sodda bog'lovchilar ishlatilgan	___ Bog'lovchi vositalar deyarli qo'llanilmagan

#### Jarima ballari (umumiy ballan ayiriladi)

\_\_\_ 1 ball: xat hajmi 135 – 120 so'z bo'lsa

\_\_\_ 2 ball: xat hajmi 119 – 105 so'z bo'lsa

\_\_\_ 3 ball: xat hajmi 104 – 90 so'z bo'lsa

\_\_\_ 4 ball: xat hajmi 89 – 75 so'z bo'lsa

Birinchi topshiriq uchun umumiy ball \_\_\_\_\_

Konversiya shkalasi (keraklisini belgilang)

1 = 0,6      4 = 2,5      7 = 4,4      10 = 6,3      13 = 8,1      16 = 10,0

2 = 1,3      5 = 3,1      8 = 5,0      11 = 6,9      14 = 8,8

3 = 1,9      6 = 3,8      9 = 5,6      12 = 7,5      15 = 9,4

**2-TOPSHIRIQ**

**Diqqat: quyidagi hollarda yozma ish tekshirilmaydi va yozma ishga avtomatik tarzda minimal ball - 1.3 ball beriladi:**

- yozma ish topshiriqqa mos kelmaydi (mavzudan chekinilgan)
- yozma ishning hajmi so'ralgan hajmning yarmidan kam (125 so'zdan kam)
- plagiat aniqlansa

TOPSHIRIQ TALABLARINING BAJARILGANLIGI			
4	3	2	1
__ Insho to'liq akademik uslubda yozilgan (uslubdan chekinilmagan)	__ Inshoni yozishda ayrim hollarda akademik uslubdan chekinilgan	__ Insho asosan og'zaki so'zlashuv uslubida yozilgan	__ Insho to'liq og'zaki so'zlashuv uslubida yozilgan
__ Inshoda kirish va xulosa mavjud va talab darajasida yozilgan	__ Inshoda kirish va xulosa mavjud va talab darajasida yozilgan	__ Inshoda kirish yoki xulosa mavjud va talab darajasida yozilgan	__ Inshoda kirish va xulosa mavjud emas yoki talab darajasida yozilmagan
__ Inshoning maqsadi (tezisi) aniq bayon qilingan	__ Inshoning maqsadi (tezisi) aniq bayon qilingan	__ Inshoning maqsadi (tezisi) noaniq bayon qilingan	__ Inshoning maqsadi (tezisi) umuman bayon qilinmagan
__ Inshoning asosiy qismidagi paragraflar (abzatslar) to'g'ri tuzilgan; paragrafdagi fikrni isbotlash uchun misollar va dalillar keltirilgan	__ Inshoning asosiy qismidagi paragraflar (abzatslar) asosan to'g'ri tuzilgan	__ Inshoning asosiy qismidagi paragraflar (abzatslar) asosan noto'g'ri tuzilgan	__ Inshoning asosiy qismidagi paragraflar (abzatslar) noto'g'ri tuzilgan
__ Inshoda muammoning ikki tarafi ham batafsil yoritilgan	__ Inshoda muammoning bir tarafi ikkinchi tarafiga nisbatan batafsilroq yoritilgan	__ Inshoda muammoning faqat bir tarafi yoritilgan	__ Inshoda muammo yoritilmagan

GRAMMATIKA			
4	3	2	1
__ Grammatik xilma-xillik mavjud: sodda va qo'shma gaplarning turli xillari o'z o'rnida va to'g'ri ishlatilgan /	__ Sodda va qo'shma gaplarning turli xillarini ishlatishga harakat qiladi, lekin qo'shma gaplar tuzishda xatoliklar mavjud	__ Asosan sodda gaplar ishlatilgan; qo'shma gaplar bir-ikki o'rinlarda uchraydi	__ Faqat sodda strukturalar ishlatilgan
__ Grammatika va punktuasiyada xatolar yo'q	__ Grammatika va punktuasiyada ayrim xatolar mavjud, lekin ular mazmunga ta'sir qilmaydi	__ Grammatika va punktuasiyada xatolar mavjud, lekin ular mazmunga ta'sir qilmaydi	__ Sistematik xatolar; grammatikaning hatto elementar formalarida ham xatolarga yo'l qo'yilgan

LEKSIKA			
4	3	2	1
__ Leksik xilma-xillik mavjud, murakkab so'zlardan ham o'z o'rnida va to'g'ri foydalanilgan	__ Murakkab so'zlarni qo'llashda ayrim xatolar mavjud	__ So'z qo'llashdagi va so'z yasashdagi xatolar mazmuni tushunishga to'sqinlik qiladi	__ Faqat elementar so'zlardan foydalanilgan; so'zlarni qo'llashda sistematik xatolar mavjud
__ Kerakli o'rinlarda perefraz qo'llanilgan	__ Kerakli o'rinlarda perefraz qo'llanilgan	__ Perefraz deyarli uchramaydi	__ Perefraz umuman yo'q

BOG'LANISH VA MATN YAXLITLIGI			
4	3	2	1
__ Inshoda mantiqiy izchillikka rioya qilingan	__ Inshoda mantiqiy izchillikka rioya qilingan	__ Inshodagi mantiqiy izchillikka xatolar mavjud	__ Inshoda mantiqiy izchillikka rioya qilinmagan
__ Insho paragraflarga (abzatslarga) to'g'ri bo'lingan /	__ Insho paragraflarga (abzatslarga) to'g'ri bo'lingan /	__ Inshonini paragraflarga (abzatslarga) bo'lishda xatoliklar mavjud	__ Insho paragraflarga (abzatslarga) noto'g'ri bo'lingan yoki umuman bo'linmagan
__ Inshoda ortiqcha ma'lumot yo'q, faqat so'ralgan mavzuga tegishli ma'lumot kiritilgan	__ Inshoda ayrim ortiqcha ma'lumotlar mavjud	__ Insho hajmining yarmi ortiqcha ma'lumotlardan iborat	__ Insho hajmining yarmidan ko'pi ortiqcha ma'lumotlardan iborat
__ Inshoda sodda va murakkab bog'lovchi vositalar (bog'lovchilar, kirish so'zlar, olmoshlar va h.k.) to'g'ri qo'llanilgan.	__ Murakkab bog'lovchi vositalarni qo'llashda ayrim xatolar mavjud	__ Faqat sodda bog'lovchilar ishlatilgan	__ Bog'lovchi vositalar deyarli qo'llanilmagan /

**Jarima ballari (umumiy balldan ayiriladi)**

- \_\_ 1 ball: insho hajmi 230 – 205 so'z bo'lsa
- \_\_ 2 ball: insho hajmi 204 – 180 so'z bo'lsa
- \_\_ 3 ball: insho hajmi 179 – 150 so'z bo'lsa
- \_\_ 4 ball: insho hajmi 149 – 125 so'z bo'lsa

**Ikkinchi topshiriq uchun umumiy ball \_\_\_\_\_  
Konversiya shkalasi (keraklisini belgilang)**

1 = 1,3	4 = 5,0	7 = 8,8	10 = 12,5	13 = 16,3	16 = 20,0
2 = 2,5	5 = 6,3	8 = 10,0	11 = 13,8	14 = 17,5	
3 = 3,8	6 = 7,5	9 = 11,3	12 = 15,0	15 = 18,8	